



IXTISOSLASHGAN MUSIQA MAKTAB O'QUVCHILARIGA MUSIQA SAVODINI O'RGATISHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Egamberdiyeva Madinaxon

*Farg'ona Davlat Universiteti San'atshunoslik fakulteti Musiqa ta'limi va
madaniyat kafedrası magistratura bo'limi 1-bosqich talabasi.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ixtisoslashgan musiqa maktablarida o'quvchilarga musiqa savodini o'rgatish jarayonidagi pedagogik muammolar tahlil qilinadi. Musiqa savodxonligi o'quvchilarning nazariy bilimlarini oshirish bilan birga ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada ushbu sohadagi muammolar, ularni hal etish yo'llari hamda samarali o'qitish metodlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Musiqa savodxonligi, ixtisoslashgan musiqa maktabi, pedagogik muammolar, nazariy bilimlar, metodika, didaktika.

O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama mukammal inson qilib tarbiyalash hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Musiqa ta'limining oliy maqsadi yosh avlodni milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan hamda musiqa boyligini idrok eta oladigan, yetuk, barkamol, madaniyatli, nafaqat o'z milliy an'ana-madaniyatlarini, balki boshqa millatlar madaniyatidan boxabar va bu an'ana, madaniyatlarini hurmat qiladigan inson qilib voyaga yetkazishdan iborat.

Musiqa ta'limi jamiyat madaniy taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Ixtisoslashgan musiqa maktablarida o'quvchilarga nazariy va amaliy bilimlar beriladi, biroq musiqa savodxonligini o'rgatishda muayyan pedagogik muammolar mavjud. Ushbu maqolada ana shu muammolar va ularni bartaraf etish usullari yoritiladi.



Musika – inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovushlar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi san'at turi. Uning mazmuni o'zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy-badiiy obrazlardan iborat. Musika insonning turli kayfiyatlari (masalan, ko'tarinkilik, shodlik, zavqlanish, mushohadalik, g'amginlik, xavf-qo'rquv va boshqalar) ni o'zida mujassamlashtiradi. Bundan tashqari, musika shaxsning irodaviy sifatleri (qat'iyatlik, intiluvchanlik, o'ychanlik, vazminlik va boshqalar)ni, uning tabiati (mijozi)ni ham yorqin aks ettiradi. Musiqaning ushbu ifodaviy tasviri imkoniyatlari yunon olimlari – Pifagor, Aristotel va Sharq mutafakkirlari – Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur, Kavkabi, tasavvuf arboblari – Imom G'azzoliy, Kalobodiy Buxoriy va boshqa tomonidan yuqori baholangan, sharh va ilmiy tadqiq qilingan. Musiqaning odam ongi va hissiyotiga ta'sir etishning ajoyib kuchi uning ruhiy jarayonlarga hamohang bo'lgan protsessual – muayyan jarayonli tabiati bilan bog'liqdir. Musika asarlari mazmunida musiqali obrazlarning o'zaro munosabatlari (taqqoslanish, to'qnashuv, rivojlanish kabi) jarayonida shakllanadi.

Mazkur jarayonning xususiyatlariga ko'ra Musika mazmuni ham turli – epik, dramatik, lirik belgilarga ega bo'lishi mumkin. Bulardan insonning ichki dunyosi, ruhiy holatlarini ifodalashga moyil bo'lgan lirika Musiqaning „botiniy“ tabiatiga ancha yaqindir. Musiqaning mazmuni – shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qiymatlarning birligidan iborat bo'lib, bunda ma'lum xalq, jamiyat va tari-xiy davrga xos ruhiy tarovat, sur'at, ijtimoiy fikr va kechinmalar umumlashgan holda ifodalanadi. Musika shakllari har bir davrning ma'naviyma'rifiy talablariga javob bergan holda, ayni vaqtda inson faoliyatining ko'pgina jabhalari (muayyan jamoaviy tadbirlar, odamlarning o'zaro etik va estetik ta'sir etish, muloqot qilish jarayonlari) bilan mushtarakdir. Musiqaning, ayniqsa, insonning axloqiy va estetik didini shakllantirish, hissiy tuyg'ularini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirish vositasi sifatida ro'li juda muhimdir.



Insonning musiqa faoliyati asosan 3 bosqichda amalga oshiriladi: ijod, ijro va tinglash. Har bir bosqichda asarning mazmun va shakli uzgacha kurinishga ega bo'ladi. Ijod bosqichida badiiy g'oya va shakl muallif ongida mushtarak holda tug'iladi. Ijro jarayonida shakl va mazmun ijrochi tomonidan uning dunyokarashi, estetik tasavvurlari, shaxsiy tajriba va maxoratiga mos ravishda uzgartiriladi. Musiqa ixlosmandlari ham ijro etilayotgan asarni uzlarining xususiy didi, hayotiy va badiiy tajribasiga asoslanib qabul qilishadi.

Musiqashunoslik - san'atshunoslik sohasi, musiqa haqidagi fan. Musiqa nazariyasi, musiqa tarixi, musiqiy folkloristika (etnomusiqashunoslik), musiqiy tanqid va musiqiy jurnalistika kabi asosiy hamda boshqa fanlarga aloqador (musiqiy akustika, musiqiy psixologiya, musiqiy paleografiya, musiqiy estetika, musiqiy sotsiologiya, musiqiy sharqshunoslik, musiqiy bibliografiya va notografiya va boshqalar) sohalarni o'z ichiga oladi.

Musiqa savodi faoliyat turi umumta'lim maktablarining musiqa darsining asosiy bo'limlaridan biri bo'lib, xor bilan qo'shiq aytishga nisbatan ikkinchi darajali o'rin tutadi. Shunga qaramasdan musiqa savodi musiqa ta'limida katta rol o'ynaydi.

Musiqa nazariyasi va tarixidan boshlang'ich bilim berilib, o'quvchilarning musiqiy bilim saviyasini oshirib borishiga yordam beradi.

Musiqa savodi musiqaga, uning ifoda vositalariga ongli munosabatni tarbiyalaydi, musiqaning mazmunini tushunib olishga yordam berad. Eng muhimi notaga qarab kuylash va qo'shiq aytish malakalarini hosil qilish, garmonik eshitish qobiliyatini o'stirishga ta'sir ko'rsatish, vokal-xor ovozlari aniq talaffuz etishga hamda xor bilan ijro etish sifatini oshirishga qulaylik tug'dirish yo'li bilan sinfda qo'shiq o'rgatishni osonlashtiradi. Musiqa darsida musiqa savodiga juda oz vaqt, 5-10 daqiqa ajratiladi. Shu sababli har gal qo'shiq o'rganish, musiqa asarlarini tinglash jarayonida o'quvchilarni eshitish malakalarini hamda musiqa bilimini mustahkamlab, chuqurlashtirib borishi kerak.



Musiq savodi faoliyati maktabdan boshlanadi. Musiq savodi musiq tahlili tizimidagi muhim jarayonlar hisoblanadi. Shuning uchun o'qituvchi bolalarga zarur musiqiy nazariy bilimlarni, ma'lumotlarni berishi kerak. Musiq savodiga doir olib boriladigan ish asosan bolalarning musiqiy o'quvini o'stirish va nota yozuvlarini o'rganishdan iborat bo'libgina qolmay, balki o'quvchilarning umumiy musiqiy bilim saviyasini tarkib toptiruvchi umumiy bilim, tushunchalar majmuasini: (ijrochiligini, xalq va bastakorlik musiqasi, ularning farqlari, milliy musiqaning mahalliy uslublari, mumtoz musiq) tashkil etadi. Musiq savodi o'quvchilarda musiqaga, uning ifoda vositalariga ongli munosabatni tarbiyalaydi, musiqaning asl mazmunini tushunib olishga yordam beradi, notaga qarab kuylash va qo'shiq kuylash malakalarini hosil qilish hamda garmonik qobiliyatning o'sishiga zamin yaratadi.

Shuni ham aytish kerak, musiq savodida musiqiy atamalar, an'analar, templar (sur'at), intervallar, alteratsiya belgilari, dinamik belgilar, musiqaning ifodalovchi vositalari, oddiy musiq shakllari va janrlari, major va minor haqida tushuncha beriladi. Lekin bu tushunchalar oddiydan murakkabga qarab, iloji boricha tizimiylikka rioya qilib o'tilsa ko'zlangan maqsadga erishiladi. 1-sinfda musiq savodi boshlang'ich bilimlari beriladi. Bolalarning maktabga endigina kelganliklariga qaramay ular bog'chada ko'pgina ashulalar aytib raqsga tushgan bo'ladilar. Musiq savodiga kirishdan avval bolalarning oldingi bilimlariga tayanishimiz kerak. Bu borada o'qituvchi nihoyatda ehtiyotkor bilan bolalarga musiq haqida tushuncha beradi. Uyda tarbiyalanayotgan bolalar ham muayyan musiqaviy tasavvurga ega bo'ladilar: radio va televideniya orqali eshittiriladigan bir qancha musiq asarlari bilan tanishgan bo'ladilar. Garchi ana shu bilimlar tasodifiy va sistemaga solingan bo'lsa-da, ammo o'qituvchi bolalarga musiqadan nazariy tushunchalar hosil qilishda o'sha bilimlarga ma'lum darajada suyanib ish ko'rishi mumkin. 1-sinfda o'quvchilarning butun musiq ta'limiga negiz solinadi, shuning uchun bu sinfda o'qituvchi o'qitish metodikasini yaxshi bilishi, maktab yoshidagi kichik bolalarning yosh va individual xususiyatlarini, ularning musiqiy



vokal qo'shiqchilik imkoniyatlarini chuqur bilishi zarur. Donishmand xalqimiz azaldan kuy va qo'shiqni bola qalbiga tez yo'l topa olishi, uning ruhiyatiga ijodiy ta'sir ko'rsatishi, yaxshi xulq va odob, mehr oqibat, sabr-toqat, kattalarga hurmat fazilatlarini musiqa orqali tarkib topishini azaldan anglab yetgan.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarilarining kasbiy tayyorgarliginikuchaytirish, ixtisoslarga doir fanlarni o'qitish va pedagogik mahoratni egallash, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatish bugungi kun talabidir. O'qituvchilik kasbi sharaflı, lekin juda murakkab kasbdır, o'qituvchi musiqa nazariyasini egallashi bilan birga, bolalarni sevishi, pedagogik amaliyotdan ham o'tgan bo'lishi kerak chunki, maktab hayotidagi pedagogik jarayon juda xilma-xildir. Bu esa, musiqa o'qituvchisidan puxta bilim, amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi.

Musiqa savodini o'rgatishda quyidagi metoddan foydalanishni tavsiya qilish mumkin.

Tovushlar nota yo'lining ustida va orasida ketma-ket joylashgan. Avval nota yo'lida joylashgan tovushlarni o'rgansak.

- 1 – chiziqda “mi” tovushi joylashganligini.
- 2 – chiziqda “sol” tovushi joylashganligini.
- 3 – chiziqda “si” tovushi joylashganligini.
- 4 – chiziqda “re” tovushi joylashganligini.
- 5 – chiziqda “fa” tovushi joylashganligini bilib olamiz

Bu tovushlar yod bo'lgandan keyin chiziqlar orasida joylashgan tovushlarni o'rganamiz.

Buning uchun tovushlar ketma-ketligini bilish afzal. Shu o'rinda Do tovushdan bir oktava tovushlarni ketma-ket aytamiz. Do, Re, Mi, Fa, Sol, Lya, Si, Do gacha va orqaga qaytib, Do, Si, Lya, Sol, Fa, Mi, Re, Do deb aytamiz. Bu ketma-ketlikni iloji boricha tez aytamiz. Keyingi holatda Re dan Re gacha, Mi dan Mi gacha, va har bir tovushdan boshlab aytib ko'ramiz. Tez aytish o'yinidek bir nafasda ko'proq aytishni o'rgatamiz. Keyingi darslarda sinf o'quvchilarini



guruhlarga bo'lib, qaysi jamoa o'quvchilari ko'proq ball yig'ishiga qarab baholab boramiz.

Tovushlar joylanishini yanada tez va mukammal o'rganish uchun "Rebus" tuzishni tavsia qilamiz. Bunda so'z o'yini, ya'ni qaysi so'zimizda tovushlar uchraydigan bo'g'inlar mavjud. Nota yo'liga "Do" tovushni yozib, pastiga chiziq yordamida so'zni davomini yozamiz. Masalan, "Do" – ira, "Do" – no, "Do" – imo, "Re" – ja, "Re" – kord, "Re" – spublika, "Re" – bus, "Mi" – sol, "Mi" – x, "Mi" – rjalol, "Fa" – zliddin, "Fa" – brika, "Fa" – rruux, "Fa" – rosat, "Fa" – rog'at, "Sol" – li, "Sol" – ih, "Sol" – liq, "Si" – ddiq, "Si" – tora va shunga o'xshash so'zlarni tovushlar nomi bilan bog'lab o'rganish o'quvchilarda tovushlarni nota yo'lida joylanishini tez o'rganishda katta yordam beradi.

Bugungi kunda o'quv jarayonini barcha jabhalarida zamonaviy elektron axborot texnologiyalarining kommunikatsion resurslari dasturiy jihozlash vositalarining keng imkoniyatlaridan foydalanish zamon talabidir. „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“da belgilangan „o'quv-uslubiy majmualarning hamda ta'lim jarayoni didaktik va axborot ta'minotining yangi avlodini ishlab chiqish" natijasida "ta'lim oluvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish"ga erishish hamda „Davlat ta'lim standarti"da belgilangan „musiqa madaniyati ta'limining yangi mazmun-mohiyatini yosh avlod tarbiyasida milliy musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishni nazarda tutadi". Bunda o'quvchilar musiqa san'atini

butun nafosati bilan o'rganishlari, ommaviy musiqa faoliyatlari: musiqani badiiy idrok etish, yakka va jamoa bo'lib kuylash, musiqiy iqtidorni shakllantirish orqali ijodkorlik malakalarini rivojlantirish, jahon xalqlari musiqa durdonalarini tanishtirish bilan birga millatlararo totuvlik va hamjihatlik tuyg'ularini tarkib toptirishda innovatsion yondashuv orqali ta'lim-tarbiya berish asosiy maqsadi hisoblanadi. 2-sinf „Musiqa"darsligida o'quvchilar tinglash va kuylashi uchun



jami 38 ta asar berilgan bo'lib, shundan 10 tasi millatlararo totuvlik, bag'rikenglik, do'stlik, vatanparvarlik kabi tuyg'ularni o'z ichiga qamrab olgan, 3-sinf „Musika“ darsligida jami 67 ta asar berilgan bo'lib, shundan 20 tasi, shuningdek, 4-5-6-sinflarda qariyb 25-35 %ni tashkil etdi. Bundan tashqari, barcha sinf darsliklarida berilgan asar namunalaridan tashqari sinf fonotekasidan musiqa tinglash faoliyati 5 sinfda 36 ta asardan 8 tani, 6-sinf darsligida 32 ta asardan 16 tasini, 7-sinf darsligida 31 asardan 6 ta asar turli millat musiqa namunalari tinglash uchun tavsiya etilgan.

Musiqa savodini o'rgatish jarayonida uchraydigan asosiy pedagogik muammolar quydagilar:

1. Didaktik muammolar

- a. O'quv dasturlarining murakkabligi
- b. O'quvchilarning qiziqishini oshirishdagi qiyinchiliklar
- c. Darslik va o'quv materiallarining yetishmovchiligi

2. Metodik muammolar

- a. An'anaviy va zamonaviy metodlarning uyg'unligi
- b. Musika nazariyasini amaliy mashg'ulotlar bilan bog'lash
- c. Interaktiv metodlarni joriy etishdagi qiyinchiliklar

3. Texnik va moddiy muammolar

- a. Musika asboblarning yetishmovchiligi
- b. Ovoz yozish va tinglash jihozlari bilan ta'minot muammolari

4. Psixologik va motivatsion muammolar

- a. O'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish
- b. Yangi o'quv usullaridan foydalanish orqali qiziqishni oshirish

Musiqa savodxonligini oshirish bo'yicha quydagi tavsiyalarni amalga oshirish zarur. Bular:

- 1. Musika nazariyasi va amaliy mashg'ulotlarni uyg'unlashtirish
- 2. Zamonaviy texnologiyalardan, jumladan, mobil ilovalar va onlayn resurslardan foydalanish



3. Yangi pedagogik metodlarni, jumladan, interaktiv ta'lim usullarini keng qo'llash
4. O'quvchilarning individualligini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish¹

Xulosa qilib aytqanda, Ixtisoslashgan musiqa maktablarida musiqa savodxonligini o'rgatishda pedagogik muammolar mavjud bo'lsa-da, samarali metodik yondashuvlar yordamida bu muammolarni hal qilish mumkin. Pedagoglar o'quvchilarning qiziqishlarini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilash uchun yangicha metodlarni qo'llashlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev A. „Musiqa ta'limi nazariyasi va metodikasi“. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015.
2. Ergashev M. „Musiqa ta'limida innovatsion texnologiyalar“.– Samarqand, 2018.
3. Safarova D. „Musiqa darslarini tashkil etishda zamonaviy yondashuvlar“. – Toshkent, 2020.
4. Xudoyberdiyev S. „O'quvchilarga musiqa savodini o'rgatish metodikasi“. – Buxoro, 2019.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. „Musiqa ta'limi bo'yicha davlat standarti“. – Toshkent, 2022.

¹ O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. „Musiqa ta'limi bo'yicha davlat standarti“. – Toshkent, 2022.